

Dissertatsiya matni, har qanday boshqa matn kabi, yirik va kichik qismlar – boblar, paragraflar va punktlar, arab va rim raqamlari bilan belgilangan punktlar, rus yoki lotin harflari bilan belgilangan mayda rubrikalarning mavjudligi bilan namoyon bo'ladi. Rubrikatsiyaning eng sodda ko'rinishi – matnning abzaslar yordamida paragraf yoki punktlarga bo'linishidir. Abzaslar matn ichida mantiqiy tugallanishlarni aniq ko'rsatib turadi. Shuning uchun ularga boshqacha bo'linmaydigan mantiqiy aksentlarni ajratib turuvchi kompozitsion usul sifatida qarash kerak. Abzasga tegishli mantiqiy butunlik matnni yaxshiroq qabul qilishga yordam beradi. Shuning uchun dissertatsion ishni abzaslarga to'g'ri bo'lish uning o'qilishi va anglashini osonlashtiradi.

Ishning yirikroq qismlarga bo'lish matnning ichki mantig'i bilan belgilanadi. Masalan, agar bob paragraflarga bo'linsa, paragraflar biri-birlarini takrorlamasliklari, lekin bobning umumiy mazmunini ochib berishlari kerak.

Bu qoidaga amal qilmaslik xatolarni keltirib chiqaradi. Xususan, bobni ochib berish uchun paragraflar ko'payib ketishi yoki aksincha, mazmunini yoritish uchun paragraflar yetishmasligi mumkin.

Bobni paragraflarga bo'lish bir xil tamoyil asosida amalga oshirilish kerak.

Bobni paragraflarga bo'lishda ayrim klassifikatsion turlarni ko'zdan qochirmaslik kerak. Masalan, "Gap turlari" bobini uchta:

- sodda gaplar
- ergash gapli qo'shma gap
- ergashmagan gapli qo'shma gap

Paragraflarga bo'lish noto'g'ri bo'ladi. Uni ikki qismga bo'lish to'g'ri bo'ladi, ya'ni :

- sodda gaplar
- qo'shma gaplar

Boblar va paragraflar shunday bo'linishi kerakki, nomlar matn mazmuniga to'liq mos kelishi kerak. Sarlavhalarda tor mutaxassislikka oid atamalar, qisqartmalar, abbreviaturalar, matematik formulalardan foydalanmaslik kerak. Sarlavhalar ortiqcha so'zlarsiz qisqa, ayni damda bitta so'zdan iborat ham bo'lmasligi kerak. Bir so'zli sarlavha aniqlikni yo'qotadi va alohida bob yoki paragraf uchun kerak bo'lmagan kenglikka ega bo'ladi. Bobning nomini bir necha qatorga cho'zish ham kerak emas.

Boblar, paragraflar va punktlar tartib raqamga ega bo'lishi kerak. Bunda rim va arab raqamlaridan, rus yoki lotin harflaridan foydalaniladi. Masalan, boblar rim raqamlari bilan, paragraflar va punktlar arab raqamlari bilan belgilanadi. Matn rubrikalari rus yoki lotin harflari bilan belgilanadi. So'nggi vaqtda yirik bo'limlar bitta arab raqami bilan, punktlar esa ikkita yoki uchta raqam bilan belgilash urf bo'ldi (masalan 2.1.- bo'lim).